

Giyohvandlikka qarshi kurashish - barchamizning ishimiz

Inson sog'-salomat ekan, yangi maqsadlar sari intiladi, hayotida mazmun bo'ladi. Sog'liqni yo'qotish, ayniqsa, giyohvandlikka muhtalo bo'lish hayotni butkul izdan chiqaribgina qolmay, insoniyat genofondiga ham xavf soladi. Shuning uchun ham giyohvandlikka qarshi kurashish dunyo miqyosidagi global muammolardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda ham bu ofatga qarshi kurashish izchil yo'lga qo'yilgan.

Bugun Qo'shtepa tumani Vatan mahalla fuqarolar yig'inida o'tkazilgan profilaktik tadbir ham aynan shu mavzuga bag'ishlandi. Tadbirda mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash viloyat boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari D.Ergasheva, Qo'shtepa tumani hokimining o'rinbosari - mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i Z.Komilov, tuman IIB boshlig'ining yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari, mayor A.Qo'chqarov va Vatan mahalla fuqarolar yig'inining xodimlari, jamoatchi oqsoqollari, dasturxonchilar hamda faol ayollar ishtirok etdilar.

Profilaktik tadbir davomida aholining shaxsiy tomorqa ekin maydonida taqiqlangan, tarkibida giyohvand moddasi bo'lgan ko'knori va nasha o'simliklarini o'stirish va parvarishlash jinoyat ekanligi, ko'chalarda hamda xonadonlarda ko'knori, nasha ekish, parvarishlash mutlaqo taqiqlanganligi, buning uchun qonunda jazo belgilanganligi, shuningdek yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish, yoshlar tarbiyasiga jiddiy ahamiyat berish masalalari keng muhokama qilindi. Qolaversa, ushbu salbiy xolatga barham berish uchun mahalla, ko'cha, jamoatchilik joylarida monitoring o'tkazib, targ'ibot ishlarini kuchaytirib borish zarurligi haqida ham so'z yuritildi.





Muzokarada soʻz olganlar mahallada giyohvandlikning oldini olishda hudud profilaktika inspektori bilan hamkorlik qilish kerakligini aytib oʻtdilar. Giyohvandlikni oldini olishda qonunlarga yanada eʼtibor berib, aholi oʻrtasida targʻibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqligi, bu borada barcha birdek masʼul ekanligi takidlandi.

Qoʻshtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-09-18 17:53:03